







YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilda Jizzax viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 17 445,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yil bilan taqqoslaganda 1,6 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019- yil narxlariga nisbatan 111,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Jizzax viloyatining qo'shgan hissasi 3,0 % ga yetdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
		2019- yil	2020- yil	
	I. YaHM	15 452,7	17 445,9	101,6
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	14 763,9	17 088,5	101,6
	Mahsulotlarga sof soliqlar	688,8	357,4	101,5
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	14 763,9	17 088,5	101,6
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	8 195,9	9 583,8	101,0
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2 684,5	3 163,0	105,6
	sanoat	1 566,2	1 933,5	107,1
	qurilish	1 118,3	1 229,5	103,5
	Xizmatlar	3 883,5	4 341,7	100,4
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	907,6	963,2	94,2

		<i>Mlrd. so‘m</i>		<i>O‘shish sur‘atlari, o‘tgan yilga nisbatan % da</i>
		<i>2019- yil</i>	<i>2020- yil</i>	
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	551,2	645,3	109,0
	boshqa xizmat tarmoqlari	2 424,7	2 733,2	100,7

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 12 494,3 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,5 % ga kamaygan.



Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va mutlaq o‘shish sur‘atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 98,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,0 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 56,1 % ni, sanoat tarmog‘i 11,3 % ni, qurilish 7,2 % ni va xizmatlar sohasi 25,4 % ni tashkil qildi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2019- yil	2020- yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,5	98,0
	Mahsulotlarga sof soliqlar	4,5	2,0
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	55,5	56,1
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	18,2	18,5
	sanoat	10,6	11,3
	qurilish	7,6	7,2
	Xizmatlar	26,3	25,4
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,1	5,6
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,7	3,8
	boshqa xizmat tarmoqlari	16,5	16,0




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)


2019- yil





2020- yil



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 101,0 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 56,1 %), sanoatda – 107,1 % (11,3 %), qurilishda – 103,5 % (7,2 %), xizmatlar sohasida – 100,4 % (25,4 %) ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari, tashish va saqlash, axborot va aloqa 109 % (3,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 100,7 % (16,0 %) dan iborat bo'ldi. Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda kamayish kuzatildi – 94,2 % (5,6 %).



YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)




2020- yilda YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2020- yilda YaHM deflyatori indeksi 2019- yil narxlariga nisbatan 111,1 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 115,8 % va sanoatda – 115,3 % qayd etildi.



YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



Jizzax viloyati statistika boshqarmasi

Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi

Tel.: (72) 221-53-51